

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH

Malikova Shoiraoy Baxtiyorovna

*BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Buxgalteriya hisobi va statistika”
kafedrası o'qituvchisi*

sh.b.malikova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining o'rni va ahamiyatini tahlil qilinadi. DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik bo'lib, u xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Maqolada O'zbekistonda DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar, mavjud huquqiy asoslar va bu mexanizmning samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, DXShni rivojlantirishda duch kelinayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari, jumladan, huquqiy bazani takomillashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va innovatsion texnologiyalarni jalb etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik (DXSh), xizmat ko'rsatish, investitsiyalar, infratuzilma, davlat sektori, xususiy sektor, iqtisodiy rivojlanish, raqamlashtirish, biznes muhitini yaxshilash.

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В РАЗВИТИИ СФЕРЫ УСЛУГ ЗА СЧЕТ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ

Malikova Shoiraoy Baxtiyorovna

*БухГУ Факультет экономики и туризма преподаватель кафедры
“Бухгалтерского учета и статистики”*

sh.b.malikova@buxdu.uz

Аннотация: В статье анализируются роль и значение механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП) в развитии сферы услуг в Узбекистане. ГЧП — это долгосрочное партнерство государства и частного сектора, которое способствует повышению качества услуг, развитию инфраструктуры и снижению финансовой нагрузки на государственный бюджет.

В статье представлена подробная информация о проектах, реализуемых в Узбекистане на основе ГЧП, существующей правовой базе и эффективности данного механизма. В нем также представлены проблемы, возникающие при развитии ГЧП, и пути их решения, включая предложения по совершенствованию правовой базы, созданию благоприятной среды для инвесторов, привлечению инновационных технологий.

Ключевые слова: *государственно-частное партнерство (ГЧП), предоставление услуг, инвестиции, инфраструктура, государственный сектор, частный сектор, экономическое развитие, цифровизация, улучшение деловой среды.*

IMPROVING THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR THROUGH INVESTMENT ATTRACTION

Malikova Shoiraoy Baxtiyorovna

*Teacher of the Department of “Accounting and Statistics” of the Faculty of
Economics and Tourism of BukSU*

sh.b.malikova@buxdu.uz

Abstract: This article analyzes the role and importance of Public-Private Partnership (PPP) mechanisms in the development of the service sector in Uzbekistan. PPP is a long-term partnership between the state and the private sector, which serves to improve the quality of services, develop infrastructure, and reduce the financial burden on the state budget. The article provides detailed information on projects implemented on the basis of PPP in Uzbekistan, the existing legal framework, and the effectiveness of this mechanism. It also presents proposals on the problems encountered in the development of PPP and ways to solve them, including improving the legal framework, creating a favorable environment for investors, and attracting innovative technologies.

Keywords: *public-private partnership (PPP), service delivery, investments, infrastructure, public sector, private sector, economic development, digitalization, improving the business environment.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. DXSh davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik bo‘lib, u davlat xizmatlari sifati va infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan. Bu jarayonda xususiy

sektor o'zining moliyaviy resurslari va boshqaruv tajribasini jalb etadi, bu esa xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni rivojlantirish bo'yicha maqsadida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etish rejalashtirilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-sonli «Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori sohani yanada takomillashtirish va kompleks tizimlashtirishga qaratilgan. Ushbu qaror DXSh loyihalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi va ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtiradi. Qarorda DXSh loyihalarini tashabbus qilish, tanlash, baholash va tasdiqlash jarayonlari batafsil bayon etilgan. Bu esa loyihalarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. DXSh loyihalarini moliyalashtirish tartibi ham ushbu qarorda ko'rsatilgan bo'lib, bu xususiy sektor uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ushbu qaror DXSh loyihalarini amalga oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan [2].

Eduardo Engel, Ronald Fischer va Alexander Galetovicning "Public-Private Partnerships: When and How" nomli ilmiy maqolasida DXSh loyiholari infratuzilmani rivojlantirishda xususiy sektorning moliyaviy va boshqaruv tajribasidan foydalanish imkonini berishini, transport, energetika va jamoat infratuzilmasida samarali natijalarga erishish mumkinligini, shuningdek, xususiy sektorning ishtiroki davlatga byudjet yukini kamaytirish va xizmat sifatini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Davlatning an'anaviy moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan hollarda, xususiy sektorning samaradorligi va innovatsiyalaridan foydalanish maqsad qilinganida, shuningdek, risklarni adolatli taqsimlash imkoniyati mavjud bo'lganda DXSh ishlatilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [3].

E.R. Yescombe'ning "Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance" kitobiga ko'ra, DXShning asosiy afzalliklari moliyaviy yukni kamaytirish, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdan iborat. DXSh risklarni davlat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlash orqali infratuzilma loyihalarini tezroq va samaraliroq amalga oshirishga yordam beradi. Xususiy sektorning ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb qilishi natijasida samarali boshqaruv tizimi shakllanadi. Shartnomalar shaffofligi va uzoq muddatli barqarorlikni

ta'minlash DXSh loyihalarining muhim jihatlaridan biri bo'lib, davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi [4].

METODOLOGIYA

Mavzuni ilmiy o'rganishda adabiyotlar tahlili, solishtirish, qiyosiy tahlil, ilmiy o'rganish va taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llanilib, infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

1992-yilda ishga tushirilgan Private Finance Initiative (PFI) dasturi orqali Buyuk Britaniya DXShni keng qo'llab, 700 dan ortiq loyihani amalga oshirdi. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 57 mlrd. Funt sterlingni tashkil etdi. Natijada, mamlakatda yangi maktablar, kasalxonalar va transport infratuzilmasi obyektlari barpo etildi. Masalan, Londonning M25 aylanma yo'li DXSh modeli asosida kengaytirilib, transport oqimini sezilarli darajada yaxshiladi [5].

Avstraliya DXSh orqali yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirib, transport va sog'liqni saqlash sohalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan, Sidney shahridagi "WestConnex" avtomagistrali loyihasi DXSh modeli asosida amalga oshirilib, umumiy qiymati 16,8 mlrd. Avstraliya dollarini tashkil etdi. Ushbu loyiha shahar transport tizimini yaxshilashga va tirbandliklarni kamaytirishga xizmat qildi [6].

Kanada DXShni sog'liqni saqlash va transport sohalarida muvaffaqiyatli qo'llab, bir qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Toronto shahridagi "Humber River" kasalxonasi DXSh modeli asosida qurilib, 1,75 mlrd. Kanada dollari miqdorida sarmoya jalb qilindi. Bu loyiha zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish va xizmat sifatini oshirishga imkon berdi [7].

Turkiya DXSh orqali sog'liqni saqlash sohasida yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Anqara shahridagi "Bilkent" shahar kasalxonasi DXSh modeli asosida qurilib, umumiy qiymati 1,3 mlrd. Yevroni tashkil etdi. Bu loyiha 3 700 dan ortiq yotoq o'rni bilan jihozlangan bo'lib, mintaqadagi eng yirik tibbiyot markazlaridan biriga aylandi [8].

Hindiston DXShni transport infratuzilmasini rivojlantirishda keng qo'llab, bir qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Masalan, Dehli shahridagi metro tizimi DXSh modeli asosida kengaytirilib, umumiy qiymati 2,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu loyiha shahar transport tizimini yaxshilash va atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirishga xizmat qildi [9].

Mamlakatimizda 2024-yilda 8,9 mlrd. AQSh dollarlik 129 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari bitimlari imzolandi. 2030-yilgacha rejalashtirilgan 63 ta

yirik infratuzilma loyihasining 39 tasida ishlar boshlangan. Jumladan, Fargʻonada koʻp tarmoqli shifoxona, Samarqandda elektr tarmoqlari modernizatsiyasi, Toshkent va Toshkent viloyatida DXSh asosida maktablar qurish, Urganch aeroportini modernizatsiya qilish va kichik gidroenergetika loyihalari boʻyicha xalqaro tenderlar oʻtkazildi. 2024-yilda kichik loyihalar qiymati 33 mln. AQSh dollari tashkil etdi. Sohani rivojlantirish uchun 30 mlrd. AQSh dollarlik DXSh loyihalariga koʻmak beruvchi markaz tashkil etilib, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyildi. 2025-yilda DXSh loyihalari uchun 6,5 mlrd. AQSh dollarlik bitimlar imzolash, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirish, aeroportlarni xususiy boshqaruvga berish, elektron platforma ishga tushirish hamda III DXSh forumini oʻtkazish rejalashtirilgan [10].

Shuningdek, energetika sohasida sezilarli natijalarga erishmoqda. 2026 yilgacha davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy qiymati 12 mlrd. AQSh dollari boʻlgan 29 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan boʻlib, bu qoʻshimcha 71 mlrd. Kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi va yiliga 12 mlrd. Kub metr tabiiy gazni tejashga yordam beradi [11].

XULOSA

Mamlakatimizda DXShdan unumli foydalanish boʻyicha takomillashtirish uchun DXSh qonunchiligini xalqaro standartlarga mos ravishda qayta koʻrib chiqish, shaffoflikni taʼminlash va shartnomaviy huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash lozim. DXSh shartnomalarini investorlar uchun koʻproq himoya kafolatlari bilan taʼminlash kerak. DXSh doirasida soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish orqali mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokini faollashtirish mumkin. Kredit va grant dasturlari orqali mahalliy tadbirkorlarni DXSh loyihalarida qatnashishga undash lozim. DXSh loyihalarida davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi risklar aniq belgilanib, davlat tomonidan haddan tashqari moliyaviy majburiyatlar olinmasligi kerak. “Key Performance Indicators” (KPI) tizimini joriy etish orqali loyihalarning natijadorligi baholanib borishi lozim. Qayta tiklanuvchi energiya sohasida shamol va quyosh elektr stansiyalarini barpo etishda DXSh loyihalarini kengaytirish va yoʻl infratuzilmasida pullik magistrallar tizimini rivojlantirish orqali davlat byudjetidan ajratiladigan xarajatlarni kamaytirish maqsadga muvofiq. DXSh loyihalari boʻyicha raqobatbardosh va shaffof tender tizimini joriy qilish hamda barcha jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini taʼminlash lozim. Davlat organlari va xususiy sektor oʻrtasida umumiy maʼlumot platformasi yaratish orqali, loyihalarning natijadorligi va mablagʻlar harakati toʻgʻrisida hisobotlar jamoatchilikka ochiq boʻlishi kerak [12].

Mamlakatimiz DXShning xalqaro tajribadan kelib chiqqan eng samarali modellarini tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishda sezilarli yutuqlarga erishishi mumkin.

DXShdan foydalanish infratuzilma rivojlanishini tezlashtirib, davlat byudjeti yukini kamaytiradi va xizmatlar sifatini oshiradi. Soliq imtiyozlari, qonunchilikni takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish va xalqaro tajribani o'rganish orqali O'zbekiston DXShdan maksimal darajada foyda olishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik orqali zamonaviy infratuzilma, barqaror iqtisodiyot va raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti shakllanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.10.2024 yildagi 720-son
3. Engel, E., Fischer, R., & Galetovic, A. (2014). Public-Private Partnerships: When and How. National Bureau of Economic Research (NBER). 36 b.
4. E. R. Yescombe – “Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance” (2007), 350 b.
5. National Audit Office (NAO) – “Managing PFI assets and services as contracts end” (2020). 58 b.
6. https://investment.infrastructure.gov.au/projects/048726-12nsw-np?utm_source
7. <https://www.infrastructureontario.ca/en/what-we-do/projectssearch/humber-river-hospital/>
8. <https://www.platinonline.com/saglik/en-buyuk-kamu-ozel-isbirligi-ile-yapilan-ankara-sehir-hastanesi-bilkent-acildi-963471>
9. <https://en.wikipedia.org/>
10. <https://gov.uz/oz/imv/news/view/32854>
11. <https://uza.uz/oz/posts/tashqi-qarz-taraqqiyotga-yonaltirilgan-sarmoya>
12. Malikova Shoirax Baxtiyorovna. “O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali (2024, may №5, 1064-bet) Litsenziya raqami: №046523 1194-bet.